Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mintaqalarning barqaror rivojlanishi va hududiy darajada iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini tadqiq etish jarayonida iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi omillar ta’sirini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tahdidlarning tavsifidan kelib chiqib, mintaqa iqtisodiy xavfsizligi diagnostikasi tizimining tarkibiy elementlari aniqlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning zamonaviy nazariyasida “iqtisodiy xavfsizlik” kategoriyasini aniqlashga oid bir qator ilmiy yondashuvlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- moslashuvchan yondashuv — tahdidlarni tezda bartaraf etish yoki sharoitlar o‘zgarishiga moslashish qobiliyati;
- uyg‘unlashtiruvchi yondashuv — tadqiq etilayotgan obyekt manfaatlarini tashqi muhit manfaatlari bilan muvofiqlashtirish;
- evolyutsion yondashuv — salohiyatni himoya qilish va uni salbiy omillar ta’siridan saqlash;

- himoyaviy yondashuv — tadqiq etilayotgan obyektning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, tahdidlarning oldini olish va strategiyani amalga oshirish;
- raqobat yondashuvi — raqobat ustunliklarini iqtisodiy xavfsizlikning muhim omili sifatida baholash;
- liberal yondashuv — iqtisodiy xavfsizlikni iqtisodiy erkinlik oʻlchovi sifatida talqin etish;
- ierarxik yondashuv — milliy xavfsizlik, davlatning iqtisodiy xavfsizligi, mintaqa, tarmoq, korxona va shaxs xavfsizligi oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni taʼminlash;
- jarayonli yondashuv — iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha texnik, tashkiliy, operatsion, huquqiy va iqtisodiy jarayonlar majmuini shakllantirish;
- resurs-funksional yondashuv — resurslardan funksional tarkibiy qismlar boʻyicha samarali foydalanish orqali iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash;
- sinergetik yondashuv — sinergiya effekti asosida tahdidlar taʼsiridan himoyalangan holatni shakllantirish;
- statik yondashuv — iqtisodiy xavfsizlik tizimining holati, iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik, muvozanat va ishonchlilik darajasini baholash;
- strategik yondashuv — xavf-xatar sharoitida rivojlanishga yoʻnaltirilgan strategik boshqaruv hamda tashkiliy-boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini baholash muammosi dolzarb boʻlishiga qaramay, bu sohadagi tadqiqotlarni hali toʻliq, tizimli va yakunlangan deb hisoblash mumkin emas. Iqtisodiy xavfsizlik nazariyasi hozirgi kungacha “tahdid”, “xavf”, “daʼvat” va “xavf-xatar” tushunchalarini iqtisodiy nuqtayi nazardan aniqlashda yagona yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi, taʼriflarning batafsil emasligi hamda ularni turkumlashda aniq mezonlarning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Bu esa mazkur yoʻnalishda chuqur ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini taqozo etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda iqtisodiy xavfsizlikka taʼsir qiluvchi omillar sifatida xavf-xatar va tahdid tushunchalari alohida ajratib koʻrsatiladi. Lugʻatlarda berilgan taʼrifga koʻra, omil — bu iqtisodiy jarayon va uning natijasiga taʼsir koʻrsatuvchi shart, sabab, parametr yoki koʻrsatkichdir[1]. Olimlarning mintaqa iqtisodiy xavfsizligi holatiga taʼsir qiluvchi omillar haqidagi qarashlarida muayyan umumiylik mavjud boʻlsa-da, bu borada yagona yondashuv toʻliq shakllanmagan.

L. P. Goncharenko iqtisodiy xavfsizlikning asosiy kategoriyalari sifatida “xavfsizlik — tahdid — xavf-xatar” tushunchalarini ajratib koʻrsatadi. Xavfsizlikni ichki va tashqi salbiy omillar taʼsiridan himoyalanganlik darajasi sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Bunda tahdid xavfning aniq shakli yoki salbiy shartlar va omillar majmui sifatida talqin etiladi. Xavf-xatar esa muayyan hodisa, mexanizm, ijtimoiy organizm yoki tizimga salbiy taʼsir koʻrsatishning obyektiv imkoniyati sifatida qaraladi. Bunday taʼsir natijasida tizimga zarar yetishi, uning rivojlanish surʼati pasayishi yoki inqirozli holat yuzaga kelishi mumkin[2]. Olimning iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni “iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish imkoniyatini murakkablashtiruvchi yoki cheklovchi, milliy qadriyatlar, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy tizim, millat yoki alohida subyektning hayot taʼminoti uchun xavf tugʻdiruvchi aniq yoki potensial harakatlar” sifatida tavsiflashi bugungi ilmiy yondashuvlarga mos keladi.

M. V. Kusman ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikka taʼsir koʻrsatuvchi omillarni oʻrganib, “xavf-xatar — tahdid — daʼvat” tushunchalarini farqlaydi. Xavf-xatar ijtimoiy-iqtisodiy organizmga salbiy taʼsir koʻrsatishning obyektiv imkoniyati sifatida qaraladi. U obyekt rivojlanishiga nomaqbul dinamika yoki parametrlarni kiritadi, uning holatini yomonlashtiradi va zarar keltirishi mumkin. Xavf-xatar manbalari sifatida texnogen, ijtimoiy yoki tabiiy kelib chiqishga ega boʻlgan, destruktiv taʼsir koʻrsatuvchi shartlar va omillar qaraladi. Tahdid esa xavfning bevosita shakli yoki tadqiqot obyektiga xavf tugʻdiruvchi omillar va shartlar majmui sifatida tushuniladi.

Daʼvat xavfning eng umumiy namoyon boʻlish shakli boʻlib, yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xavf-xatar va tahdidlarni cheklash boʻyicha muayyan harakatlar zaruratini keltirib chiqaradi[3].

Ye. I. Kuznetsova xavfsizlikka tahdid deganda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tugʻdiruvchi shartlar va omillar majmuini tushunadi[4]. Tahdidlar xoʻjalik subyektlari, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, iqtisodiyotning boshqa boʻgʻinlari tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli yoki beixtiyor harakatlar, shuningdek, tabiiy jarayonlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Tahdid manbalari mintaqaviy tizimning ichki yoki tashqi muhitida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jarayonlarning nomaqbul rivojlanishi natijasida shakllanishi mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan X. Abdulqosimov, A. E. Ishmuxammedov, D. Ortiqova, N. Karimov, B. Isroilov, I. Xotamov, A. A. Yadgarov, M. K. Olimov, B. O. Tursunov, M. K. Pardayev, Z. Yu. Aminov, I. T. Abdukarimov, M. M. Muxammedov, E. N. Xodjayev va boshqalarning ilmiy ishlarida ham iqtisodiy xavfsizlik va unga taʼsir etuvchi

1 Райзберг Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Ста родубцева. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 512 с
2 Экономическая безопасность: учебник для вузов / Л.П. Гончаренко [и др.]; под общей редак цией Л.П. Гончаренко. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 340 с.
3 Экономическая безопасность: учебное пособие / М.В. Кунцман. – М.: МАДИ, 2016. – 152 с.
4 Кузнецова Е.И. Экономическая безопасность: учебник и практикум для вузов / Е.И. Кузнецо ва. – М.: Издательство Юрайт, 2017. 294 с.

omillar xavf-xatar hamda tahdidlar ketma-ketligida tavsiflanadi[5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, tizimli yondashuv, ekspert baholash, statistik va iqtisodiy tahlil, taqqoslash, ekonometrik modellashtirish, monografik tadqiqot hamda sotsiologik kuzatishlar natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalarda iqtisodiy xavfsizlik yo‘nalishi sifatida himoyaviy yondashuvga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuvda xavfsizlik xavfdan himoyalanganlik darajasi hamda xavfga qarshilik ko‘rsatish shakli sifatida talqin etiladi. Biroq xavfsizlikni talqin qilishdagi himoyaviy yondashuv bilan xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan himoyaviy yondashuvni aralashtirib yubormaslik lozim. Birinchisi “xavfsizlik” tushunchasining kelib chiqish manbalarini asoslab bersa va xavflarga qarshi turish yo‘llarini belgilasa, ikkinchisi himoya qilinishi zarur bo‘lgan obyektlarni ajratib ko‘rsatadi.

Himoyaviy yondashuv kontekstida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini aholi hayot sifati, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik darajasi, ichki hamda tashqi tahdidlar ta’siriga qarshi turish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqish lozim. Bunda xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi nafaqat mintaqaning ishlab chiqarish va tabiiy-resurs salohiyatining joriy holatini, balki tashqi hamda ichki tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi hodisalar ta’sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va joriy etishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv mamlakatimiz misolida Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun alohida ahamiyatga ega[6].

Yuqorida keltirilgan talqinlarni umumlashtirib aytish mumkinki, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid deganda mintaqa iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi, uning aholi ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini izdan chiqarishi mumkin bo‘lgan salbiy omillar majmui tushuniladi. Tahdid xavfning aniq shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ajratib ko‘rsatilgan kategoriyalar qatoriga “xavf” kategoriyasini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi xavfi deganda mintaqaviy iqtisodiyotda nomaqbul vaziyat yuzaga kelish ehtimoli tushuniladi. Barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, ya’ni destabilizatsiyalovchi omillarning mintaqaviy iqtisodiyotga destruktiv ta’siri uning iqtisodiy salohiyatining pasayishiga, o‘zini-o‘zi tiklash va himoya qilish qobiliyatining susayishiga, shuningdek, aholining ehtiyoj va manfaatlari yetarli darajada qondirilmasligiga olib kelishi mumkin.

Ushbu xulosaning asoslanganligini N. N. Korzayeva tomonidan taklif etilgan mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatini diagnostika qilish tizimi ham tasdiqlaydi. Mazkur tizim quyidagi asosiy tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi: iqtisodiy xavfsizlik — iqtisodiy xavf — iqtisodiy tahdid — iqtisodiy xavf-xatar[7].

I. G. Babes salbiy ta’sir omillari intensivligini hisobga olgan holda mintaqa iqtisodiy tizimining bir holatdan boshqasiga, ya’ni tahdid holatidan chegaraviy xavf-xatar va undan keyingi xavf-xatar bosqichlariga o‘tishining miqdoriy hamda sifat mezonlarini ajratib ko‘rsatadi.

Chegaragacha bo‘lgan bosqichda mintaqa qaytarilishi mumkin bo‘lgan hamda rivojlanish maqsadlariga erishish uchun jiddiy oqibatlarga olib kelmaydigan yo‘qotishlarni boshdan kechiradi. Bunday holat uning tashkiliy tuzilmasini izdan chiqarmaydi. Chegaradan keyingi bosqich uchun esa mintaqaning tashkiliy tuzilmalarida qisman yoki to‘liq buzilishlar xos bo‘lib, bu uning keyingi rivojlanishini murakkablashtiradi. Iqtisodiy tahdid ehtimollik xarakteriga ega bo‘lgan taqdirda, u mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini yo‘qotishning potensial omilidan 0 dan 1 gacha bo‘lgan chegaraviy qiymatlarga ega real omilga aylanadi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatida quyidagi vaziyatlarni ajratish mumkin: normal vaziyat, inqirozdan oldingi vaziyat va inqirozli vaziyat. Normal vaziyat, ya’ni iqtisodiy xavfsizlik holati, mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va izchil o‘sishini, aholiga munosib hayot standartlarini ta’minlashni, tashqi va ichki tahdidlarni oldindan baholash hamda ularga qarshi samarali choralar ko‘rishni tavsiflaydi.

Inqirozdan oldingi vaziyat mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ayrim elementlari faoliyatida buzilishlar yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Salbiy omillar ta’sirini bartaraf etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, bu holat hudud rivojlanishining izdan chiqishiga zamin yaratishi mumkin. Inqirozli vaziyat esa iqtisodiy xavf-xatar holati bo‘lib, unda tizimning asosiy elementlari, jumladan, ishlab chiqarish, moliya va mehnat salohiyatida jiddiy muammolar yuzaga keladi[8].

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatiga ta’sir qiluvchi omillar qatoriga xavf, tahdid, da’vat va xavf-xatarni kiritish

5 N.Karimov, B.Isroilov, I.S.Xotamov, F.Xamidova, Sh.Saydullayev, J.Jabborov. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. Monografiya – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-y. - 146 b.

6 Viloyatlar va Toshkent shahri uchun bu masala yagona davlat siyosati doirasida, davlat dasturlari orqali hal qilinishi mumkin.

7 Корзаева Н.Н. Основы экономической безопасности. Учебник. – М., 2017. – 276 с.

8 Бабец И.Г. Устойчивое развитие и безопасность региона. – Львов, 2015. – 268 с.

mumkin. Xavf — mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlari va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarning yuzaga kelish ehtimolidir.

Tahdid — mintaqa xavfsizligini ta'minlash maqsadlari va manfaatlarini amalga oshirish shartlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatdir. Da'vat — mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlari va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishga bevosita to'sqinlik qiluvchi harakat yoki holatdir. Xavf-xatar esa mintaqaning iqtisodiy manfaatlari va xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan real yoki potensial omil sifatida namoyon bo'ladi.

N. V. Manoxina, M. V. Popov va N. P. Kolyadin mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatiga salbiy omillar ta'sirini o'rganib, potensial tahdidlar va ularning amalga oshish xavflarini ko'rib chiqadilar[9]. Tahdidlarni tahlil qilish — bu nomaqbul hodisaning yuzaga kelishi natijasida iqtisodiy tizim faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi joriy vaziyat, shart-sharoitlar va omillarni tadqiq etishdir. Xavflar tahlili esa potensial tahdidlar ro'yxatini belgilash, ularning yuzaga kelish manbalarini aniqlash, yuzaga kelish ehtimolini baholash hamda tahdidlarning oldini olish, ularning ta'siri va salbiy namoyon bo'lishini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish xavflari ekzogen va endogen xavflarga bo'linadi. Ekzogen xavflar tashqi omillar ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ular qonunchilikdagi o'zgarishlar, inflyatsiya darajasining oshishi, mamlakatdagi siyosiy vaziyat va iqtisodiy siyosatning o'zgarishi, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi natijasida namoyon bo'ladi.

Endogen xavflar ichki omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ularga mintaqaning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va mamlakat miqyosidagi mehnat taqsimotidagi ishtiroki, ishlab chiqarishning texnologik jihozlanish darajasi hamda mintaqa iqtisodiy tizimini rivojlantirishga qaratilgan samarali rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligini kiritish mumkin.

Mintaqaning yuqori iqtisodiy xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun mintaqaviy darajada iqtisodiy subyektlarning to'laqonli faoliyatiga xavf tug'diruvchi tahdidlarning xilma-xilligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mintaqalar iqtisodiy xavfsizligiga asosiy tahdidlardan biri mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi tafovutlar bilan bog'liq. Bunday tafovutlar geografik joylashuv, tabiiy-resurs salohiyati, inson kapitali, mintaqaviy xo'jalik komplekslarining tuzilishi va ixtisoslashuvi, shuningdek, xo'jalik yuritish hamda tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan izohlanadi.

Mintaqalar iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadigan tarkibiy va resurs nomutanosibliklari, shuningdek, boshqaruvni tashkil etishdagi ayrim muammolar natijasida yuzaga keladi. Ushbu tahdidlar ta'sirida ichki mintaqaviy bozorlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi pasayishi, ichki kooperatsion aloqalarning uzilishi va iqtisodiy makonda turg'unlik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Olimlar mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi ko'plab tahdidlarni ichki va tashqi tahdidlarga ajratadilar. N. N. Korzayeva tadqiqotlarida ichki tahdidlar tizimli ierarxiyaning mikro va mezo-iqtisodiy darajalarida, tashqi tahdidlar esa mega-iqtisodiy darajada ko'rib chiqiladi[10].

Mikroiqtisodiy tahdidlar mintaqadagi xo'jalik subyektlari faoliyati bilan bog'liq. Hududiy-iqtisodiy darajadagi tahdidlar esa ichki bozor barqarorligi, qayta ishlab chiqarish mustaqilligi va mintaqaviy darajada o'zini o'zi ta'minlash imkoniyatlari bilan bog'liq.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarning yuzaga kelish manbalari mintaqa iqtisodiyotining joriy holatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Bular qatoriga ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan siyosatning yetarli darajada shakllanmaganligi, iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolarning keskinlashuvi hamda boshqa omillar kiradi.

Makroiqtisodiy darajadagi tashqi tahdidlar davlat iqtisodiyoti samaradorligining pastligi, yagona tarkibiy siyosatning yetarli darajada shakllanmaganligi, moliya-byudjet tizimidagi nomutanosibliklar, tabiiy resurslar zaxirasining kamayishi, atrof-muhit holatining yomonlashuvi hamda iqtisodiy munosabatlarda norasmiy va salbiy jarayonlarning kuchayishi bilan izohlanadi[11].

Iqtisodiy tahdidlar mintaqa darajasida yaqqol namoyon bo'lsa-da, ularning kelib chiqish sabablari geosiyosiy omillar, davlat tashqi qarzining o'sishi, kapital oqimlarining tashqi bozorlarga yo'nalishi, tashqi bozor imkoniyatlarining qisqarishi hamda davlatlararo siyosiy-iqtisodiy ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar funksional tarkibiy qismlar yoki yuzaga kelish manbalari bo'yicha, ya'ni ishlab chiqarish resurslari, byudjet, bank tizimi, aholi, tabiiy muhit va tashqi muhit asosida guruhlanadi. Shuningdek, ular muayyan tahdidning ta'sirini tavsiflovchi ko'rsatkichlar asosida ham tasniflanadi.

Xususan, asosiy tahdidlar sifatida hududiy mahsulotlar raqobatbardoshligining pasayishi, iqtisodiyotning tarkibiy nomutanosibligi, asosiy fondlarni yangilash darajasining pastligi, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, investitsion

9 Экономическая безопасность: Учебное пособие / Н.В. Манохина, М.В. Попов, Н.П. Колядин, И.Э. Жадан; Под ред. Н.В. Манохиной – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2014. – 320 с.
10 Корзаева Н.Н. Основы экономической безопасности. Учебник. – М., 2017. – 276 с.
11 Салахова Э.К. Экономические инструменты регулирования деятельности естественных моно полий в России // Современная антимонопольная политика России: правоприменительная практика в Брянской области: сборник научных работ Всероссийской научнопрактической конференции. 2019. С. 170-173

faollikning susayishi, ilmiy-texnik salohiyatning pasayishi, mintaqaviy byudjet tuzilmasining nomutanosibligi, iqtisodiyotda norasmiy jarayonlarning kengayishi, ekologik vaziyatning keskinlashuvi, strategik resurslar importiga bog‘liqlik, demografik vaziyatning o‘zgarishi, ishsizlik va kambag‘allik darajasining ortishi, aholi farovonligi darajasining pasayishi hamda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga asosiy tahdidlar, avvalo, iqtisodiy tizimlarda yuzaga keladi. Hududiy darajadagi iqtisodiy tizimlar murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash choralarini aniq, tizimli va quyi tizimlarga ajratilgan holda amalga oshirish zarur. An’anaviy yondashuv iqtisodiy tizimning uch darajasini — mikro, mezo va makroiqtisodiy tuzilishini nazarda tutadi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv davlat tuzilishi va boshqaruv tizimiga ko‘ra shakllangan bo‘lib, uni mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga mos holda qo‘llash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash darajalarini davlat tuzilishi va iqtisodiy tizim asosida ajratish maqsadga muvofiq. Masalan, aksariyat MDH mamlakatlarida milliy iqtisodiy tizim makro, mintaqaviy va mikro darajalarda talqin qilinadi[12].

Hozirgi kunda mintaqaviy darajadagi iqtisodiy tizimlar taraqqiyotida hududlarning iqtisodiy xavfsizligi masalasi davlat dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. Biroq ta’kidlash joizki, mintaqalarning texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan farqlanishi, asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli differensiatsiyasi iqtisodiy xavfsizlik sohasida muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. Binobarin, mamlakatimizdagi 14 ta hududiy subyekt — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biri mazkur yo‘nalishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu davlat tomonidan mintaqalar iqtisodiyotiga nisbatan olib boriladigan siyosatda individual yondashuvni talab etadi.

Mintaqada ishlab chiqarish sohasidagi muvozanatning buzilishi, mintaqaviy, milliy va xalqaro bozorlardagi pozitsiyalarning zaiflashuvi, ilmiy-texnik salohiyatning pasayishi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish kabi holatlar hudud iqtisodiy tizimidagi muammolarni aks ettiradi.

Ijtimoiy tahdidlar aholi turmush darajasi va sifatining pasayishi, daromadlar darajasidagi tafovutlarning ortishi, bandlikning qisqarishi, aholining tabiiy ko‘payish sur’atlarining pasayishi natijasida demografik vaziyatning murakkablashuvi hamda mintaqalardagi ekologik holatning yomonlashuvida namoyon bo‘ladi. Mamlakatimizning Orolbo‘yi mintaqasida ijtimoiy-ekologik vaziyatdagi beqarorlik va shu tufayli yuzaga kelgan holatlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mintaqalar iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarning funksional tarkibiy qismlar bo‘yicha guruhlanishi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval
Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarning funksional tarkibiy qismlar bo‘yicha tipologiyasi[13]

| Mintaqa iqtisodiy xavfsizlining tarkibiy qismlari | Mintaqa iqtisodiy xavfsizligaga tahdidlar |
|---|---|
| Mekroiqtisodiy | - yalpi hududiy mahsulot, shu jumladan bir aholi boshiga sur’atlari va hajmlarining pasayishi;<br>- iqtisodiyotning strukturaviy deformatsiyasi;<br>- sanoat ishlab chiqarishi sur’atlari va hajmlarining pasayishi;<br>- sanoat ishlab chiqarishi tuzilmasining yomonlashishi;<br>- asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirganligi;<br>- mintaqa mahsulotining raqobatbardoshligi pasayishi;<br>- sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish o‘sishi va bir vaqtning o‘zida ilm sig‘imkor tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi;<br>- sanoat ishlab chiqarishining yuqori energiya sig‘imi;<br>- energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishning past darajasi. |
| Investitsion-innovatsion | - asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining pasayishi;<br>- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’atlarining kamayishi;<br>- ilmiy-tadqiqot ishlarini davlat moliyalashtirish hajmlarining pasayishi;<br>- ilmiy salohiyatning qisqarishi, ixtirochilik faolligining pasayishi;<br>- korxonalarning innovatsion faolligi pasayishi. |
| Tashqi iqtisodiy | tashqi bozorlar konyunkturasining o‘zgarishi;<br>tashqi savdoning asimmetriyasi;<br>eksportning nooqilona tuzilishi;<br>- eksportning past ilm sig‘imi;<br>- texnologik importga va strategik resurslar (neft, gaz, elektr energiya) importiga bog‘liqlik. |

12 Rossiya federatsiyasi bundan mustasno, Rossiya iqtisodiy tizimida mezo-daraja mavjud bo‘lib, u federal darajani namoyon qiladi.
13 Muallif ishlanmasi

| | |
|---|---|
| Moliyaviy xavfsizlik | mintaqaviy byudjetning nooqilona tuzilishi;<br>davlat transferlariga moliyaviy bog'liqlikning o'sishi;<br>mintaqaviy soliqqa tortish tizimining samaradorligi pasayishi;<br>byudjet daromad qismining bajarilmasligi;<br>iqtisodiy faoliyatning yashirinlik darajasining o'sishi |
| Ijtimoiy xavfsizlik | aholi daromadlari va xarajatlari darajasi va tuzilmasining o'zgarishi;<br>- ishsizlik darajasining, shu jumladan yashirin ishsizlikning o'sishi;<br>- aholining qashshoqlanishi va pul daromadlarining pasayishi;<br>- jamiyatda ijtimoiy keskinlikning o'sishi;<br>- aholi kasallanishining yuqori darajasi;<br>- jinoyatchilik darajasining o'sishi |
| Demografik xavfsizlik | aholi sonining kamayishi;<br>- aholining jinsi va yoshi tuzilmasining deformatsiyasi (aholining qarishi);<br>- aholining umr ko'rish davomiyligi qisqarishi;<br>- mehnatga layoqatsiz aholining mehnatga layoqatlilarga haddan tashqari demografik yuki;<br>- migratsiya jarayonlariga ta'sir qiluvchi samarali mexanizmlarning yo'qligi |

Shunday qilib, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar deganda mintaqaviy ehtiyojlarni qondirishga to'sqinlik qiluvchi yoki xo'jalik subyektlarining ishlab chiqarish salohiyati pasayishi, tabiiy, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan nooqilona foydalanish, mintaqaning byudjetlararo transfertlarga bog'liqligi ortishi, aholining ijtimoiy tabaqalanishi chuqurlashishi hamda ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar majmui tushuniladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Himoyaviy yondashuv kontekstida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini tashqi va ichki tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi salbiy omillar ta'siridan himoyalanganlik darajasi sifatida belgilash mumkin. Tahdid tadqiqot obyektiga xavf tug'diruvchi xavfning aniq va bevosita shakli yoki shart-sharoitlar hamda omillar majmui sifatida izohlanadi. Xavf-xatar esa tadqiqot obyektining faoliyati va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatning yuzaga kelish ehtimoli sifatida qaraladi.

Salbiy omillar mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga "xavf — tahdid — da'vat — xavf-xatar" elementlari holatining o'zgarishi orqali ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillar mintaqaviy tizim faoliyati shartlari va natijalarini yomonlashtirishi, uning rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirishi yoki izdan chiqarishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar mintaqaning o'zida ham, undan tashqarida ham yuzaga keladigan jarayonlar, hodisalar va vaziyatlar natijasida shakllanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotdagi dinamik o'zgarishlar, iqtisodiy muvozanatning buzilishi va umumiy beqarorlik mintaqalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli salbiy omillar va tahdidlarning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini o'z vaqtida aniqlash, monitoring qilish, baholash hamda ularning oldini olish mintaqaviy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki davlatning iqtisodiy xavfsizligi alohida hududlar xavfsizligi darajasi va ularning iqtisodiy salohiyati rivojlanishi bilan bevosita bog'liq.

Mintaqaning zarur iqtisodiy xavfsizlik darajasiga erishish uchun tizimga umumiy tarzda ham, uning alohida tarkibiy qismlariga ham maqsadli ta'sir ko'rsatish zarur. Iqtisodiy tizim holati haqida umumiy tasavvur beruvchi iqtisodiy xavfsizlik parametrlaridan tashqari, turli tahdidlar namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarni ham hisobga olish muhimdir.

Mazkur holatlar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni murakkablashtiradi hamda mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini iqtisodiy-matematik modellar asosida tizimli tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv kompleks diagnostika o'tkazish, iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlash, iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatuvchi barqarorlikni susaytiruvchi omillarni aniqlash, mintaqa rivojlanishini prognozli baholash hamda iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, demografik va boshqa hududiy xususiyatlarni, shuningdek, mintaqalararo aloqalarni hisobga olgan holda barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini tanlash imkonini beradi.

Keltirilgan dalillar mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini model tasviri asosida tizimlashtirilgan holda tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni funksional tarkibiy qismlar bo'yicha tizimlashtirish va tasniflash natijalariga tayanib aytish mumkinki, keyingi tadqiqotlar hududlarning iqtisodiy xavfsizligi holatini hisoblash va tahlil qilish, iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismlariga tahdidlarning ta'sir darajasini aniqlash hamda mintaqaviy rivojlanish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan samarali dasturlarni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov N., Isroilov B., Xotamov I.S., Xamidova F., Saydullayev Sh., Jabborov J. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot: monografiya. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 146 b.
2. Odilqoriyev H.T. O'zbekiston davlati va jamiyati innovatsion rivojlanishining huquqiy jihatlari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 362 b.
3. Абдулаева З.З. Разработка оптимальной системы экономических показателей безопасности в регионе // Региональные проблемы преобразования экономики. – 2010. – № 4. – С. 348–356.
4. Бабец И.Г. Устойчивое развитие и безопасность региона. – Львов, 2015. – 268 с.
5. Гончаренко Л.П. и др. Экономическая безопасность: учебник для вузов / под общ. ред. Л.П. Гончаренко. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Юрайт, 2019. – 340 с.
6. Корзаева Н.Н. Основы экономической безопасности: учебник. – Москва, 2017. – 276 с.
7. Кузнецова Е.И. Экономическая безопасность: учебник и практикум для вузов. – Москва: Юрайт, 2017. – 294 с.
8. Кунцман М.В. Экономическая безопасность: учебное пособие. – Москва: МАДИ, 2016. – 152 с.
9. Манохина Н.В., Попов М.В., Колядин Н.П., Жадан И.Э. Экономическая безопасность: учебное пособие / под ред. Н.В. Манохиной. – Москва: НИЦ ИНФРА-М, 2014. – 320 с.
10. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 6-е изд., перераб. и доп. – Москва: ИНФРА-М, 2017. – 512 с.
11. Салахова Э.К. Экономические инструменты регулирования деятельности естественных монополий в России // Современная антимонопольная политика России: правоприменительная практика в Брянской области: сборник научных работ Всероссийской научно-практической конференции. – 2019. – С. 170–173.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2025. № 11**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**